

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muloqotning psixologik tamoyillari xususida	90
M.M.Kaxarova	
Til va nutq tushunchasi	97
M.M.Kaxarova	
Konsept va u bilan bog'liq terminlar xususida.....	103
E.V.Yugay	
Clarity and accessibility as drivers of scientific impact in academic writing.....	107
D.I.Sattarova	
Siyosiy matnlarda intertekstual unsurlar va ularning kommunikativ ahamiyati	112
G.U.Yuldasheva	
Ingliz va o'zbek tilshunosligida "Baxt" va "Baxtsizlik" konseptlarining o'rganilishi.....	117
G.U.Maxmudjonova	
O'zbek tilida orfoepik me'yorlarni avtomatlashtirishning muammolari va yechimlari	123
Sh.R.Askerova	
Metaphor and its types in modern french.....	127
H.U.Davlatova	
Tilshunoslikda nutq ontogenezining psixolingvistik tadqiqi va uning ilmiy-nazariy asoslari	131
Z.S.Kenjaye	
Boysun tumani oronimik tizimida zoonim komponentli oronimlar	138
A.R.Kosimov	
Критическое отношение к собственной педагогической практике.....	143
M.Ш.Бахриддинова	
Антропоцентрический подход в переводе и влияние когнитивных и культурных факторов на восприятие	146
Ч.Х.Чамолов	
Иртиботи забонҳои тоҷикӣ ва ўзбекӣ	151
X.P.Murtozoev, M.A.Ubaydullozoda	
Ҳодисаи савтии ҷойивазкунии овозҳо дар ашъори намояндагони сабки Хуросонии адабиёти тоҷику форс.....	158
X.J.Sayfullayev, F.M.Ulasheva	
Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari	164
S.A.Toshmatova	
Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida milliylik ifodasi: realiyalar va ularning inglizcha tarjimadagi talqini	171
S.M.Muminov, Sh.D.Muxtorova	
Data jurnalistikasi va uning ma'lumotlar tahlilida tutgan o'rni (internet nashrlari misolida)	176
U.To'rayeva	
O'zbek tili grammatikasining zamonaviy o'qitilish usullari: muammo va yechimlar.....	182
H.U.Davlatova	
Nutq ontogenezining lingvistik tadqiqi	187
I.V.Xoldarova	
Raqamli texnologiyalar asosida boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodlari	195
N.ShAbdullayeva	
Teaching the use of thesauruses to english as a foreign language learners: pedagogical approaches and lexical development	198
M.O.Obilov	
Kognitiv sxemalar va freymalar: akademik matn yaratishda shaxsiy tajribaning roli	207
N.Sh.Abdullayeva	
Innovative approaches to teaching english as a foreign language: contemporary methodologies and digital integration	212
Z.A.Akbarova	
Inson dunyo qarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	219
I.B.Xabibullayev	
Said Ahmadning "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasidagi oilaviy munosabatlarda psixofiziologik holat tasviri.....	222
M.X.Hakimov	
Implitsitlik kategoriyasi xususida	227



UO'K: 81'373.7:159.942.4

**INGLIZ VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA "BAXT" VA "BAXTSIZLIK"
KONSEPTLARINING O'RGANILISHI****ИЗУЧЕНИЕ КОНЦЕПТОВ "СЧАСТЬЕ" И "НЕСЧАСТЬЕ" В АНГЛИЙСКОЙ И
УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ****THE STUDY OF THE "HAPPINESS" AND "UNHAPPINESS" CONCEPTS IN ENGLISH
AND UZBEK LINGUISTICS**Yuldasheva Gulzoda Umidjon qizi 

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan Davlat Chet Tillari Instituti 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya

Tilshunoslikda inson hissiyotlarining lingvistik ifodasi dolzarb tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi. Inson hayotining asosiy qarama-qarshi jihatlarini ifodalovchi "baxt" va "baxtsizlik" konseptlari shu nuqtayi nazardan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tilshunoslik an'alarida "baxt" va "baxtsizlik" konseptlarini o'rganishdagi lingvistik usullar va yondashuvlarni qiyosiy jihatdan tahlil etishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotning maqsadi – bir-biriga qardosh bo'lmagan ikki turli tilga tegishli tilshunoslik maktablarida ushbu konseptlarni o'rganishda qo'llaniladigan metodologiyalarning o'xshash va farq qiluvchi jihatlarini aniqlashga qaratilgan. Maqolada qiyosiy, konseptual, tizimli-uslubiy tahlil usullari qo'llanildi. Tadqiqot davomida har ikki tilning frazeologik birliklari, metaforalari, xalq ertaklaridagi konseptual modellar va zamonaviy lingvistik yondashuvlari o'rganildi. Ingliz tilshunosligida kognitiv va korpus lingvistikasi asosida ushbu konseptlarni chuqur o'rganish an'analari shakllangan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida lingvokulturologik va qiyosiy tadqiqotlar ko'proq ustunlik qiladi. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida ushbu konseptlarni tahlil qilish jarayonida korpus lingvistikasidan foydalanish hozircha keng rivojlanmaganligi aniqlanmoqda. Maqola natijalari nafaqat tilshunoslik nazariyasi, balki tarjima amaliyoti, madaniyatlararo muloqot va pragmalingvistika sohalarida ham qo'llanishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlarda korpus pragmatikasi, gender, yosh va ijtimoiy guruhlar kesimida qiyosiy tahlil hamda xalq og'zaki ijodidan olingan materiallar asosida yangi konseptual modellar yaratish istiqbolli yo'nalish sifatida belgilandi.

Аннотация

В лингвистике лингвистическое выражение человеческих эмоций является актуальным направлением исследований. Концепты "счастья" и "несчастья", отражающие фундаментальные противоположные аспекты человеческой жизни, с этой точки зрения имеют важное значение. Данная статья посвящена сравнительному анализу лингвистических методов и подходов к изучению концептов «счастья» и «несчастья» в традициях английской и узбекской лингвистики. Цель исследования — выявить сходства и различия в методологиях, используемых для изучения этих концептов в двух различных, неродственных лингвистических школах. В статье применялись методы сравнительного, концептуального и системно-методического анализа. В ходе исследования были изучены фразеологические единицы, метафоры, концептуальные модели в народных сказках и современные лингвистические подходы обоих языков. Если в английской лингвистике сложились традиции глубокого изучения этих концептов на основе когнитивной и корпусной лингвистики, то в узбекской лингвистике преобладают лингвокультурологические и сравнительные исследования. Также выяснилось, что в узбекской лингвистике использование корпусной лингвистики в процессе анализа данных концептов пока не получило широкого распространения. Результаты статьи могут быть применены не только в теории языкознания, но и в практике перевода, межкультурной коммуникации и прагмалингвистики. В будущих исследованиях перспективными направлениями были определены корпусная прагматика, сравнительный анализ с учетом гендера, возраста и социальных групп, а также создание новых концептуальных моделей на основе материалов народного устного творчества.

Abstract

In linguistics, the linguistic expression of human emotions is a relevant field of research. The concepts of "happiness" and "unhappiness", representing fundamental opposing aspects of human life, are of significant importance from this perspective. This article is focused on a comparative analysis of the linguistic methods and approaches used to study the concepts of "happiness" and "unhappiness" within the English and Uzbek linguistic traditions. The aim of the research is to identify the similarities and differences in the methodologies employed by these two distinct, non-cognate linguistic schools for studying these concepts. The article utilizes methods of comparative, conceptual, and systematic-methodological analysis. During the research, the phraseological units, metaphors, conceptual models in folk tales, and

modern linguistic approaches of both languages were examined. While traditions of in-depth study of these concepts based on cognitive and corpus linguistics have been formed in English linguistics, linguocultural and comparative research predominates in Uzbek linguistics. It was also found that the use of corpus linguistics in the process of analyzing these concepts is not yet widely developed in Uzbek linguistics. The results of the article can be applied not only in linguistic theory but also in the practice of translation, intercultural communication, and pragmalinguistics. For future research, corpus pragmatics, comparative analysis across gender, age, and social groups, and creating new conceptual models based on materials from folk oral creativity were identified as promising directions.

Kalit so'zlar: baxt, baxtsizlik, konsept, kognitiv tilshunoslik, metafora, qiyosiy tahlil, tilshunoslik maktabi.

Ключевые слова: счастье, несчастье, концепт, когнитивная лингвистика, метафора, сравнительный анализ, лингвистическая школа.

Key words: happiness, unhappiness, concept, cognitive linguistics, metaphor, comparative analysis, linguistic tradition.

KIRISH

Bugungi kunda ilmiy izlanishlar interdisiplinar, ya'ni fanlararo uzviy yo'nalishda olib borilishi davr talabi hisoblanib, lingvistik tadqiqotlar ham bundan mustasno emas. Zamonaviy tilshunoslikning yo'nalishlaridan bo'lgan kognitiv tilshunoslik va konseptologiya fanlari ham mana shunday turli fanlar kesishmasida vujudga kelgan. Kognitiv tilshunoslik til va inson ongi o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, u psixologiya, falsafa, nevrologiya, antropologiya kabi sohalar bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, konseptologiya madaniyat, til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. "Baxt" va "baxtsizlik" kabi konseptlar ham turli fanlar kesishmasida o'rganiladi, chunki ular nafaqat lingvistik, balki madaniy, psixologik va falsafiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolaning maqsadi o'zbek va ingliz tilshunoslik an'analarda "baxt" va "baxtsizlik" konseptlarini o'rganishdagi qo'llanilgan usullar, nazariyalar va yondashuvlarni qiyosiy o'rganib chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Olamni anglashning dialektik nazariyaiga ko'ra biz "baxt"ni tadqiq etish mobaynida uning tub mohiyatini "baxt"ning qarama-qarshisi bo'lgan "baxtsizlik"siz tasavvur eta olmaymiz. Bugungi kunda tadqiqotchilarning diqqat markazidagi mavzu bo'lgan baxt va baxtsizlik binar oppozitsiyasining nazariy asoslarini K. Levi-Strossning [1] binar oppozitsiyalar nazariyasi, B. Holbekning [2] daniya ertaklaridagi misollarida ko'rish mumkin. Levi-Strossning izlanishlari struktur tilshunos Ferdinand De Sossurning g'oyalariga tayangan bo'lib, uning fikricha "inson ongi dunyoni qarama-qarshi juftliklar orqali idrok etadi va tuzadi hamda bu printsipning barcha madaniyatlarda universal" [3]. Olim ushbu ikkiliklarning mantiqi nafaqat mavhum tushuncha, balki ma'no yaratishning asosiy infratuzilma hisoblanishi ya'ni bir tushunchaning ma'nosi uning qarama-qarshisiga nisbatangina shakllanishini ham ta'kidlaydi [4]. "Baxt" (happiness) va "baxtsizlik" (unhappiness) konseptlari aynan shunday binar juftlikning eng yorqin namunasidir. Ular shaxsning hissiy tajribasini, ijtimoiy marosimlarni va hikoyaviy tuzilmalarni idrok etishini va madaniy jihatdan tashkil etishini ta'minlovchi qarama-qarshilikni hosil qiladi. Shuning uchun ham, ushbu konseptlarning ingliz va o'zbek tillaridagi lingvistik ifodalari nisbatan tasodfiy so'zlar to'plami emas, balki chuqurroq, universal kognitiv strukturaning ko'rinishidir. Ikkita lingvistik dunyoqarashda maxsus metaforalar, frazeologik birliklar va madaniy ramzlar (keyingi bo'limlarda tahlil qilinadi) farq qilishi mumkin bo'lsa-da, ularning asosidagi qarama-qarshilik munosabati doimiy bo'lib, qiyosiy tahlil uchun umumiy asos yaratadi.

Ingliz tilshunosligida, ayniqsa kognitiv yo'nalishda, "baxtlilik" va "baxtsizlik" konseptlari borasida juda ko'p izlanishlar olib borilgan. Kognitiv tilshunoslik sohasining asosiy manbalaridan hisoblanuvchi "Metaphors We Live By" kitobida mualliflar Lakoff va Jonson "his-tuyg'ularning lingvistik konseptualizatsiyasi tasodifiy emas, balki jismoniy tajribaga asoslangan konseptual metaforalar tomonidan tizimli ravishda tuzilganligi"ni ta'kidlaydilar [5]. Ular quyidagi misollarni keltiradilar: "happiness is up" ya'ni "baxt bu yuqori" metaforasi "I'm feeling up" (o'zimni yaxshi his qilyapman) kabi iboralarda namoyon bo'lsa, uning qarama-qarshisi "sadness is down" ya'ni "baxtsizlik bu past" metaforasi "I'm feeling down" (o'zimni yomon his qilyapman) kabi iboralarda ifodalanadi. Bundan tashqari, baxt ko'pincha miqdori aniqlanadigan modda sifatida konseptualizatsiya qilinadi: "bursting with joy" – "quvonchdan to'lib-toshgan", baxtsizlik esa jismoniy og'irlik sifatida: "weighed down by sorrow" – "qayg'udan ezilgan".

TILSHUNOSLIK

Ingliz tilshunosligida “baxt” va “baxtsizlik” lingvokulturologiya va madaniyatlararo tadqiqotlarda ham o‘z aksini topadi. Misol uchun, Koveches “baxt” va “qayg‘u” kabi his-tuyg‘ular ifodasida universal fiziologik asoslar borligini ta’kidlab, “baxt – bu yuqori va baxt - bu yorug‘lik metaforalari deyarli universaldir, ehtimol buning sababi baxt bilan bog‘liq bo‘lgan universal inson tanasining tajribasidir” degan xulosaga keladi [6]. Verbitska kabi olimlar esa hissiyot so‘zlarining madaniyatga xosligini ta’kidlab, “hissiyot so‘zining ma’nosi vaziyatni xarakterli baholash, xarakterli his-tuyg‘u va xarakterli istakni o‘z ichiga olgan ssenariydir” degan fikrni ilgari suradi [7]. Bu fikr Ogarkova tomonidan “hissiyot tushunchalari ma’lum darajada madaniyat bilan chegaralangan” deya mustahkamlanadi [8].

Ingliz tilshunosligida “baxt” va “baxtsizlik” konseptlari borasida olib borilgan tadqiqotlarda korpus tahlillaridan ham ko‘p foydalaniladi. Zamonaviy korpuslar masalan, Corpus of Contemporary American English - COCA yordamida “happy”, “happiness”, “sad”, “sadness” kabi so‘zlarning kollakatsiyalari, chastotalari va kontekstdagi qo‘llanilishi statistik jihatdan o‘rganiladi, bu metaforik naqshlarni amaliy asoslash imkonini beradi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda kognitiv tilshunoslik, korpus tilshunoslik kabi zamonaviy lingvistik yo‘nalishlar borasida ko‘plab izlanishlar olib borilgan bo‘lib, turli konseptlarning o‘zbek tilida yoki o‘zbek tili va boshqa qardosh hamda qardosh bo‘lmagan tillarda voqelanishini qiyoslab o‘rganilgan ilmiy ishlar buning yaqqol dalili bo‘la oladi: “uy” konsepti yapon tili misolida [9], “ota” konseptini o‘zbek tilidagi diniy-ma’rifiy matnlarda va xalq maqollari, topishmoqlarda lisoniy-kognitiv jihatlar [10], “qat’iyat” konseptining o‘zbek tilida ifodalanishi [11], “ta’lim, ilm” konseptlarini ingliz va o‘zbek tillaridagi maqol va aforizmlarda lingvomadaniy [12], “ayol” konseptining fransuz va o‘zbek tillarida talqini [13], “muhabbat” konsepti ingliz va o‘zbek tillarida ifodalanishi [14], “donolik” va “nodonlik” konseptlarining ingliz va o‘zbek tillarida lingvokulturologik tadqiqi [15], “oq” va “qora” konseptlarining ingliz va qoraqalpoq matnlarida pragma-diskursiv tadqiqi [16] va boshqalar.

“Baxt” konsepti esa o‘zbek tilshunosligida asosan quyidagi yo‘nalishlarda o‘rganilgan: lingvokulturologik va qiyosiy tadqiqotlarda ko‘pgina tadqiqotchilar “baxt” konseptini o‘zbek madaniyati kontekstida va chet tillari (asosan ingliz tili) bilan qiyosiy holda o‘rganishgan. “Baxt” konseptini universal lingvokulturema sifatida ingliz va o‘zbek tillarida tarjimaviy xususiyatlarini N. Tuxtaxodjayeva [17] o‘rganib, baxt va baxtsizlik konseptlarining semantik maydonini keltiradi. Olima Karimova esa baxt konseptini o‘zbek tilidan ingliz tiliga badiiy matnda tarjima qilish muammolari borasida izlanishlar olib borib, baxt konseptini adekvat tarjima qilishga ta’sir qiluvchi omillarni tavsiflagan va o‘tkazgan assotsiativ tajribasi natijasida respondentlarning nafaqat yoshi balki ularning shaxsiyati, dunyoqarashi kabi omillarni ham baxt talqinida ta’siri borligini isbotlaydi [18], baxtning pragmatik xususiyatlari qisman xursandchilik etimoni tarkibida ingliz va o‘zbek matnlarida o‘rgangan Jumaqulovning ilmiy ishida xursandchilikni ifodalovchi etimonlar tarkibida baxtlilikning ham frazeo-semantik maydoni aks ettiriladi [19]. ingliz va o‘zbek tillarida baxt konseptining verballashuvini qisman T. Mardiyevning ilmiy ishida ham ko‘rish mumkin, unda olim baxt konseptini lisonda voqelantiruvchi qator so‘zlarni keltirib o‘tadi [20]. Ingliz tilida baxtlilik va baxtsizlik binar oppozitsiyaning verballashuvini Z. Raxmonovanning ishi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda dastlab baxtlilik va baxtsizlik konseptual binar oppozitsiyasini verbalizatorlari aniqlanib, ular o‘rtasidagi sinonimlik, omonimlik, giponimlik, gipornimlik munosabatlari ko‘rsatildi; zamonaviy korpus tahlillari asosida baxtlilik va baxtsizlikni lisonda aks ettiruvchi birliklarning nutqda faollik darajasi statistikasi ham keltirib o‘tildi [21]. Ushbu oppozitsiyani o‘zbek va ingliz tillarida ifodalanishini qiyosiy tadqiq etgan M. Qosimova esa baxtlilik va baxtsizlik konseptlarining ifodasini badiiy matnlarda ham o‘rgangan [22]. “Baxtlilik” va “baxtsizlik” konseptual binar oppozitsiyasini ingliz va o‘zbek tillarida verballashuvini aks ettiruvchi ilmiy maqolasida Yuldasheva COCA (Corpus of Contemporary American English) va O‘zbek tili korpusi tahlillari orqali o‘zbek va ingliz tillarida ushbu konseptlarni voqelantiruvchi otlar, sifatlar, fe‘llar, frazeologik birliklarni qiyoslaydi, ushbu tadqiqotning e’tiborli jihati shundaki, ingliz va o‘zbek tillaridagi xalq maqollari va ertaklaridan keltirilgan qator misollar orqali baxt va baxtsizlikning ikkala madaniyatda aks etishini tushuntirishga harakat qilinadi [23].

Qardosh xalq tadqiqotlarida ham baxt konsepti alohida o‘rganilib, xususan Suyerkul va Chakiroglular [24] qozoq xalq maqollari va ibratli so‘zlarida baxt va baxtsizlik konseptlarini ifodalanishini o‘rganganlar. Ushbu tadqiqotda xalq og‘zaki ijodi namunalarini tahlil etish orqali baxt

konseptining qozoq xalqi tafakkurida qanday aks etishi yaqqol misollar orqali tushuntirib o'tilgan. Dastlab, tadqiqotchilar baxt konseptini qozoq tilida ifodalovchi "bak" (baxt) hamda "kut" (qut, baraka) so'zlarining kelib chiqishini o'rganishadi va bir qator misollar orqali baxt konseptining qozoq madaniyatida ahamiyatini ochib berishadi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Qiyosiy-tipologik tahlil usulining qo'llanilishi orqali o'zbek va ingliz tilshunoslik maktablarida konseptual-metforik tahlilning o'ziga xos xususiyatlari, yondashuvlaridagi umumiylik va farqlar aniqlandi; bu, o'z navbatida, til hodisalarini turli madaniy va til kontekstlarida solishtirma o'rganish imkonini berdi. Tizimli-uslubiy tahlil asosida esa lingvistik tahlilning turli usullari – leksikografik, frazeologik, semantik va korpus tahlillari o'rganildi va tizimlashtirildi; ushbu usul har ikkala an'anada qo'llaniladigan uslubiy apparatni tahlil qilish va tadqiqot ob'ektiga integral yondashuvni shakllantirishga xizmat qildi. Konseptual tahlil usulining asosiy vazifasi – konseptning til, madaniyat va inson tafakkuri o'rtasidagi bog'lovchi element sifatidagi o'rnini va funktsiyasini aniqlashdan iborat hisoblanib, ushbu tahlil orqali lisoniy ma'nolar tizimidan undan tashqaridagi madaniy-ma'naviy mazmunlar maydonigacha bo'lgan mantiqiy zanjir ochib berildi. Tadqiqotning asosiy tahlil vositalaridan biri sifatida qo'llangan kognitiv-metforik tahlil usuli orqali esa turli konseptlarning lisoniy ifodalanishida muhim o'rin tutuvchi metforik modellarning tarkibi va tuzilishi o'rganildi va metaforalarning universal va milliy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan turlari aniqlanib, tasniflandi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mazkur tadqiqotning asosiy natijasi shundan iboratki, o'zbek va ingliz tilshunosligida "baxt" va "baxtsizlik" konseptlarini o'rganishda bir qator umumiy jihatlar bo'lsa-da, asosiy e'tibor, qo'llaniladigan metodlar va tadqiqot chuqurligi jihatidan sezilarli farqlar mavjud. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, har ikkala tilshunoslik an'anasida ham konseptual metaforalar nazariyasi [5] asosiy metodologik vosita sifatida qo'llaniladi. Ingliz tilshunosligida ushbu nazariya yutuqlari "baxt" va "baxtsizlik" tushunchalarini tizimli tahlil qilishga yo'l ochgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida bu nazariya nisbatan yangi qo'llanila boshlangan va ko'pincha o'zbek materialiga tadbiiq etish cheklovida qolmoqda. Biroq, natijalar shuni ko'rsatadiki, baxt bu yuqori / baxtsizlik bu pastkabi universal metaforalar ikkala tilda ham (masalan, ingliz tilida "I'm feeling up", o'zbek tilida "baxtga ko'tarilmoq", "ruhi past") faol qo'llaniladi. Bu holat insoniy jismoniy tajribaning til va tafakkurdagi aksidir [6]. Shu bilan birga, o'zbek tilshunosligida tadqiqotlar ko'proq lingvokulturologik va frazeologik tahlilga qaratilgan. "Baxt" tushunchasi konsepti baxt- sog'liq (masalan, "Sog'lik - katta baxt") va baxtsizlik – kasallik (masalan, "qalb kasali") kabi madaniyatga xos metaforalar orqali ifodalanadi. Ingliz tilshunosligida esa tadqiqotlar ko'proq korpus lingvistikasi usullari yordamida amalga oshirilib, so'zlarning ishlatilish chastotasi, kollakatsiyalari va statistik naqshlari aniqlanadi (masalan, COCA korpusi yordamida). O'zbek tilshunosligida korpusga asoslangan tadqiqotlar hali dastlabki bosqichda. Ingliz tilshunosligida "baxt" konsepti ko'pincha umumiy insoniy tajriba va universal psixologik modelar kontekstida o'rganilsa [7], o'zbek tilshunosligida bu konsept ko'proq milliy madaniyat, an'analar va xalq og'zaki ijodi (maqollar, ertaklar, badiiy asarlar) materialida o'rganiladi [17, 18, 23]. Bu farq ikkala tilshunoslik maktabining tadqiqotdagi ustunliklarini aks ettiradi: ingliz tilshunosligi universal qonuniyatlarni aniqlashga intilsa, o'zbek tilshunosligi konseptning milliy-madaniy o'ziga xosligini ochishga harakat qiladi. O'tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilshunosligi "baxt" va "baxtsizlik" konseptlarini ifodalovchi boy leksik-frazeologik materialni to'plash va tasniflashda katta yutuqlarga erishgan. Biroq, bu materiallarning chuqur nazariy tahlili va xalqaro miqyosda tan olingan lingvistik nazariyalar bilan boyitilishi hali talab etiladi. Aksincha, ingliz tilshunosligi kuchli nazariy asosga ega bo'lsa-da, ba'zan g'arbdan tashqari madaniyatlarning noyob lingvistik materiallarini e'tiborsiz qoldirishi mumkin. Verbitska [6] va Ogarkova [7] ta'kidlaganidek, hissiyot tushunchalari ma'lum darajada "madaniyat bilan chegaralangan". Shu sababli, o'zbek tilshunosligining milliy materialga asoslangan yondashuvi "baxt"ning o'ziga xos madaniy modelini (masalan, oilaviy totuvlik, ma'naviy tinchlik yoki Allohga bo'lgan shukronalik bilan bog'liq) ochishda muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilshunosligidagi individualistik va psixologik modelga qaraganda, bu model ancha ijtimoiy va ma'naviy jihatlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, o'zbek va ingliz tilshunosligidagi yondashuvlar bir-birini to'ldiradigan xususiyatga ega. Ingliz tilshunosligining metodologik jihozlarini o'zbek tilshunosligining boy empirik

TILSHUNOSLIK

materiali bilan uyg'unlashtirish ushbu sohada yanada chuqur va global natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zbek va ingliz tilshunosligida "baxt" va "baxtsizlik" konseptlarini o'rganishda ham universal, ham madaniy-xususiy bo'lgan xususiyatlar aniqlangan. Ingliz tilshunosligi, ayniqsa kognitiv va korpus lingvistikasi usullari jihatidan boy va tizimli nazariy asosga ega. O'zbek tilshunosligida esa bu soha nisbatan yangi rivojlanayotgan bo'lib, asosan lingvokulturologik, qiyosiy va frazeologik tahlil usullari qo'llaniladi, ammo korpus lingvistikasi kabi zamonaviy usullardan foydalanish hali kam rivojlangan. Ushbu qiyosiy tahlil natijalari nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo muloqot, tarjima nazariyasi va amaliyoti sohalarida ham qo'llanilishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun ushbu konseptlarning gender, yosh va ijtimoiy guruhlar kesimida tahlil qilinishi, korpus tahlillar asosida nafaqat statistik ma'lumotlar balki, tizimli yondashuvga asoslangan chuqur tahlillar olib borish, har bir madaniyatga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlashda esa, o'sha madaniyatga tegishli xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish ham istiqbolli yo'nalishlardan bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dundes A. "Binary Opposition in Myth: The Propp/Lévi-Strauss Debate in Retrospect." *Western Folklore*, vol. 56, no. 1, 1997, pp. 39–50. JSTOR, <https://doi.org/10.2307/1500385>. Accessed 7 Apr. 2025;
2. Holbek, B. (1987). *Interpretation of fairy tales: Danish folklore in a European perspective*. Suomalainen Tiedeakatemia.
3. Lévi-Strauss, C. (1963). *Structural anthropology* (C. Jacobson & B. G. Schoepf, Trans.). Basic Books. (Original work published 1958)
4. Lévi-Strauss, C. (1969). *The raw and the cooked* (J. Weightman & D. Weightman, Trans.). Harper & Row.
5. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
6. Kövecses, Z. (2000). *Metaphor and emotion: Language, culture, and body in human feeling*. Cambridge University Press.
7. Wierzbicka, A. (1999). *Emotions across languages and cultures: Diversity and universals*. Cambridge University Press.
8. Ogarkova, A. (2013). Emotion concepts in a cross-linguistic perspective. In J. J. R. Fontaine, K. R. Scherer, & C. Soriano (Eds.), *Components of emotional meaning: A sourcebook* (pp. 50-62). Oxford University Press.
9. Abdulhamidova, D. (2023). *Yapon tilida qarindosh-urug'chilik bilan bog'liq birliklarda "[IE] – UY" konsepti* [The concept of "[IE] – HOME" in kinship-related units in the Japanese language]. [PhD dissertation abstract, Toshkent Davlat Universiteti].
10. Anorqulova, O. (2023). *O'zbek tilida "ota" konseptining lingvistik-kognitiv talqini* [Linguo-cognitive interpretation of the "father" concept in the Uzbek language]. [PhD dissertation abstract, Samarqand Davlat Universiteti]
11. Jamoliddinova, I. (2025). *O'zbek tilida "qat'iyat" konseptining ifodalanishi* [Expression of the "determination" concept in the Uzbek language]. [PhD dissertation abstract].
12. Narmuratov, Z. (2022). *Ingliz va o'zbek tillarida "ta'lim", "ilm" konseptlariga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi* [Linguocultural study of "education" and "knowledge" concept-related paremas in English and Uzbek languages]. [PhD dissertation abstract, Termiz Davlat Universiteti].
13. Ibragimova, R. (2012). *Fransuz va o'zbek tillarida ayol konseptining lingvokognitiv tadqiqi* [Linguocognitive study of the woman concept in French and Uzbek languages]. [Candidate of philological sciences dissertation abstract]
14. Tadiyeva, M. (2024). *Ingliz va o'zbek tillarida love / muhabbat konseptining reprezentatsiyasi* [Representation of the love / muhabbat concept in English and Uzbek languages]. [PhD dissertation abstract, Termiz Davlat Universiteti].
15. Tojiboyeva, M. (2025). *"Donolik" va "nodonlik" konseptlarining lingvokulturologik tadqiqi (ingliz va o'zbek tillari misolida)* [Linguoculturological study of the "wisdom" and "folly" concepts (on the example of English and Uzbek languages)]. [PhD dissertation abstract, Farg'ona Davlat Universiteti].
16. Xudaybergenova, Z. (2025). *"Oq" va "qora" leksemalari konseptuallashuvi va matnda faollashuvining pragma-diskursiv xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari materialida)* [Conceptualization of "white" and "black" lexemes and their pragma-discursive features of activation in the text (based on English and Karakalpak languages)]. [PhD dissertation abstract, Nukus Davlat Universiteti].
17. Tuxtaxodjayeva, N. (2017). *Badiiy tarjimada lingvokulturemalarning ifodalanishi (Ingliz va o'zbek tillari misolida)* [Expression of linguoculturemes in literary translation (on the example of English and Uzbek languages)]. [PhD dissertation]
18. Karimova, S. (2023). *"Baxt" konseptining badiiy matnda voqealanishi va tarjima muammolari (O'zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasi misolida)* [Realization of the "happiness" concept in literary text and translation problems (on the example of the translation of Uzbek poetry into English)]. [PhD dissertation abstract].
19. Jumaqulova, Sh. (2023). *Frazeo-semantik maydonda "xursandchilik" etimonlarining pragmatic xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari misolida)* [Pragmatic features of "joy" etymons in the phraseo-semantic field (on the example of English and Uzbek languages)]. [PhD dissertation abstract, Termiz Davlat Universiteti].

20. Mardiyev, T. (2019). *Ingliz va o'zbek tillarida inson tuyg'ulari ifodalanishining konseptual tahlili* [Conceptual analysis of the expression of human emotions in English and Uzbek languages]. [PhD dissertation abstract].
21. Raxmonova, Z. (2024). *Ingliz tilida "baxtlilik" va "baxtsizlik" konseptual binar oppozitsiyasi verbalizatorlarining struktur-semantik va kommunikativ-pragmatik tadqiqi* [Structural-semantic and communicative-pragmatic study of verbalizers of the "happiness" and "unhappiness" conceptual binary opposition in English]. [PhD dissertation]
22. Qosimova, M. (2021). *O'zbek va ingliz tillarida baxtlilik va baxtsizlik konseptual binar oppozitsiyasi* [The conceptual binary opposition of happiness and unhappiness in Uzbek and English languages]. [PhD dissertation].
23. Yuldasheva, G. U. (2023). "Baxtlilik" va "baxtsizlik" konseptual binar oppozitsiyasining ingliz va o'zbek tillarida verballashuvi. *O'zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari*, 7(19), 28–36.
24. Suyuerkul, B., & Chakyroglu, S. (2014). Representation of the concepts "Happiness & Unhappiness" in the Kazakh proverbs and sayings. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 136, 129–133.